



SURXON BO'RIYEVNING "TANHOLIK TANTANASI" TRILOGIYASIDA RUHIYAT, OBRAZ VA PSIXOLOGIK KONFLIKT TALQINI

Yusufova Farangiz Xasanovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

mustaqil tadqiqotchisi

www.farangiz95f@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22825726>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Surxon Bo'riyevning "Tanholik tantanasi" trilogiyasining "Quyoshga intilganlar" nomli birinchi kitobida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va psixologik holatlarning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda Jabbor va Zebo o'rtasidagi munosabatlar, ularning ruhiy olamida kechayotgan ziddiyatlar hamda o'zaro mulohaza va kechinmalarning psixologik konfliktini yuzaga keltirishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, Shodiyaning kutilmaganda yonib ketishi bilan bog'liq fojiaiy voqeaning qahramonlar ruhiyatiga ta'siri, ayniqsa, uning opasi qalbida paydo bo'lgan iztirob, shubha, gumon va ruhiy izlanishlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: psixologik talqin, psixologizm, ruhiyat, psixologik konflikt, ichki monolog, ichki kechinma, portret, xarakter, obraz, badiiy tasvir, psixologik tafsilot, talqin, muallif uslubi.

Аннотация

В данной статье анализируются особенности художественного воплощения человеческой психологии, внутренних переживаний и психологических состояний в первой книге трилогии Сурхона Буриева "Торжество одиночества", озаглавленной "Стремящиеся к солнцу". В произведении раскрывается динамика отношений между Джаббором и Зебо, конфликты в их духовном мире, а также роль их взаимных размышлений и переживаний в возникновении психологического противостояния. Кроме того, анализируется влияние трагического события – внезапной гибели Шодии в огне – на психику героев, в частности, страдания, сомнения, подозрения и душевные поиски, зародившиеся в сердце её сестры.

Ключевые слова: психологическая интерпретация, психологизм, психология, психологический конфликт, внутренний монолог, внутреннее переживание, портрет, характер, образ, художественное изображение, психологическая деталь, интерпретация, авторский стиль.

Abstract

This article analyzes the artistic expression of the human psyche, inner turmoil, and psychological states in “Quyoshga intilganlar” (“Those Who Strive for the Sun”), the first book of Surkhon Bo’riyev’s trilogy “Yolg’izlik tantanasi” (“The Triumph of Solitude”). The work reveals the relationship between Jabbor and Zebo, the conflicts unfolding within their spiritual worlds, and the role of their mutual reflections and experiences in creating psychological conflict. Furthermore, it examines the impact of the tragic incident of Shodiya’s sudden immolation on the characters’ psyches, particularly the anguish, doubt, suspicion, and spiritual searching that arise in her sister’s heart.

Keywords: psychological interpretation, psychologism, psyche, psychological conflict, inner monologue, inner experience, portrayal, character, image, artistic depiction, psychological detail, interpretation, authorial style.

Ma’lumki, inson ruhiyatini qayta kashf etish hamma zamonlar uchun muhim va o’ziga xos tasvir ekzislaridan biri sanaladi. Zamonaviy o’zbek adabiyotida yuzaga kelgan “o’tish davri”, “yo’l va yo’lovchi qahramonlar” obrazi ana shunday muhim tasvir mezonlaridan iborat ekanligi ayonlashadi. Shu ma’noda, xorijda turib ijod etayotgan yurtdoshlarimiz qatori iste’dodli yozuvchi Surxon Bo’riyevning uch kitobdan iborat roman trilogiyasi har bir davrning og’riqlariga javob beradigan sujet tizmasidan tarkib topgan. Romandagi psixologik talqin Jabbor va Jasur, uning atrofida kechadigan muloqot shakllari, real turmush tarzi hamda Allohni tanish borasidagi liro-epik kechinmalar bilan uyg’unlashib ketadi.

Ayon bo’ladiki, psixologizm – badiiy shartlilik hosilasidir. Surxon Bo’riyev ana shu benihoya katta muammoni epchillik va mahorat bilan birlashtira olgan. Odamning o’z-o’zi bilan gaplashishi, o’z-o’zini talqin etishi ham ruhiy kechinmalar sirasiga kiradi. Romanning “Quyoshga ergashganlar” nomli birinchi kitobi tasvirning quyuqlashgan, psixologik kechinmalar, qizcha va notanish odam orasidagi muloqot bilan boshlanadi. Ya’ni, qizlar tezak tayyorlayotgan bir mahalda notanish odam ularni urib, azoblaydi. Bir qizchani esa onasini haqoratlab, boshini suvga bosib, o’ldirishgacha boradi. Bu juda tez sodir bo’ladi:

“Shu mahal ushbu shirin suhbatni notanish odamning do’rillagan tovushi buzdi. U bir-ikki bor yo’talib oldi-da, oqsoqlangancha qizchalar tomonga yaqinroq keldi.

– Xo’sh, asal qizlarim, bu yerda nima qilyapsizlar?

– Tappi yopyapmiz, ko’rmayapsizmi? – ularning kichkinasi burnini bir tortarkan beparvo, biroq tezgina javob qildi. Sherigi uning so’zlaridan huzur qilib qiqirladi, begona kishi ham miyig’ida kulib qo’ydi.

– Yaxshi, lekin kech kiryapti-ku, ayajonlaringiz uyda sizdan xavotir olishmaydimi?

– Mening ayam hali dashtdan qaytmagan... – dedi uzun boʻyli qizcha ham bu gal birinchi boʻlib soʻzlashga shoshilib.

– Seniki-chi? – odam ikkinchi qizchaga allanechuk gʻalati tikilib soʻradi. Lekin qizcha bu odamning gapini uncha yaxshi eshitmaganidanmi yo eshitsa ham atayin oʻzi javob berishni istamagani uchunmi, har holda indamadi. Bu holat notanish odamning yanada diqqatini tortdi, uning shusiz ham zoʻrgʻa koʻtarilib turgan qovoqlari beixtiyor osila boshladi va sezilarsiz chuqur-chuqur hansirashga tushdi. Shunda ham u qizchaning javob berishini kutib, biroz unga tikilib turdi. Qizchadan esa hadeganda sado chiqavermagach, u biroz asabiy holda chuqur “uf”lab, tagʻin soʻradi: – Sening onang-chi deb soʻrayapman, qizaloq! Nega indamaysan?..”[1;5]

Notanish odam bilan ikkita dugona orasidagi kechgan psixologik muloqot, konfliktni kuchaytiradi. Yozuvchi muammoni tugun, va voqealar rivoji sari sujetni murakkab toʻqimalarga aylantiradi. Qizlarda nima gunoh ediki, bunday oʻch olish notanish odamning oʻy-xayollariga kelib qolsa? Adib bu oʻrinda retrospektiv usuldan foydalanadi. Yaʼni qizlar hali uy ishlari, sigir sogʻish, ota onalariga qarashish istagida ulgʻayoyatgan bir paytda bu voqelikning avj nuqtalariga chiqishi – oʻlim bilan tugaydi. Qizlarning biri ariqqa boshini suvga bosish jinoyati bilan vafot etadi.

Prof. B.Sarimsoqov mazmun va shakl birligi haqida quyidagi masalalarni ifodalaydi: “Falsafiy nuqtayi nazardan qaralsa, voqelikdagi barcha narsa va hodisalar oʻzlariga xos shaklda voqe boʻladilar. Shu maʼnoda shakl mazmunni, mazmun esa shaklni taqozo etadi. Ammo sanʼat uchun, jumladan, badiiy adabiyot uchun bu umumiy qoida yetarli emas. Demak, badiiy adabiyotda mazmun va shakl muammosi hadida gap ketganda, shaklning ikki xil maʼnoda tushunilishini unutmaslik kerak. Birinchisi – shakl mazmunning ifodasi ekanligi, ikkinchisi - shakl mazmunga nisbatan befarq tashqi ifoda emasligi. Yuqorida aytganimizdek, falsafiy maʼnoda ular bir-birlarini aniqlab beradilar, chunonchi, mazmun shaklning mazmuniga yoki shakl mazmunning shakliga oʻtishdan iborat”[2;88]. Binobarin, B.Sarimsoqov toʻgʻri taʼkidlaganidek, badiiy mazmun va shaklning oʻziga xos tabiati falsafiy jihatdan, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham yongʻoqning magʻzi va uni oʻrab turgan qobigʻi kabidir. Ana shu uygʻunlik yozuvchi hali qogʻozga tushirmagan gʻoyaning fabulaning – sujetga aylanish jarayonidagi izlanishlar, ong osti tuygʻulari, iztiroblari, kechinmalari zamirida yuzaga chiqib boshlaydi.



Psixologik tarang vaziyat quyidagi lavhada ham yaqqol ko'zga tashlanadi. S.Bo'riyev buni Jabbor nutqidagi o'ziga xos kayfiyat belgisi sifatida ta'kidlaydi: "Jabbor huv talabalik yillarida, qaysidir tarixchi domlasidan eshitgandi. O'shanda u bu so'zlarni shu qadar qiziqish va hayrat bilan tinglagan ediki, yillar o'tib ham bu gaplarning jarangi hanuzgacha uning xotirasidan susaymagandi. Aslida, o'g'ling bo'lsa ham, bo'lmasa ham nima farqi bor? Ota nomini abadiylashtirish farzand zimmasida turgan eng asosiy vazifa emas-ku. Biroq o'shanda ma'ruzadan chalg'ib, shunchaki aytilgan bu jumlar bugungi kunga kelib, Jabbor uchun hayotdagi eng asosiy tushunchalardan, aniqrog'i hal qilib bo'lmas muammolardan biriga aylangandi. U shu damda ham domlaning o'sha so'zlarini Samarqanddagi eng muhtasham tamaddixonlardan birida o'tirib, shohona g'azab bilan yodga olishiga to'g'ri kelayotgandi. Ha, aynan g'azab va hasrat bilan! Ikki yil avval, u qizchali bo'lgandan so'ng, ayniqsa, bu gapni har doimgidan ko'proq eslaydigan, eslaganda ham nafrat bilan yodga oladigan bo'lib qolgandi. Hatto bir kuni mast holatda, ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, bu haqida onasiga yorilgandi ham, "Nima, mening hayotim tugadimi, onajon? Endi men bu hayotda el qatori yasholmaymanmi? Nega men o'g'illik bo'lolmadim?"[3;7]

Keltirilgan lavhada bosh qahramon Jabborning ruhiy iztiroblari monologik nutq shaklida zohir bo'ladi. Chunki romanda ikki xususiyat ko'zga tashlanadi: birinchisi, Jabbor ruhiy iztiroblari o'tmish va bugun, kelajak haqidagi mushohadalari, ikkinchisi ziddiyatlar qahramonning ichida yashab kelishidadir. Jabbor Salim va boshqa do'stlari bilan o'tkazgan baxtiyor lahzalarini bir-bir eslarkan, onasining tanbehlarini ichki sog'inish bilan xotirlaydi. Ayni chog'da.

Retrospektiv usul – roman arxitektonikasida sujet izchilligini barqarorlashtiradi. Vahima va qo'rquv ichida yashayotgan odamlar ruhiyati davrning muhim manzarasini anglash imkonini beradi.

Adabiyotshunoslik atamaları lug'atida keltirilishicha: "Badiiy xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o'zida obyektiv va subyektiv jihatlarini birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi (bu o'rnida X.ning real asosi, ya'ni uning hayotiy kuzatishlar yoki muayyan prototip asosida yaratilgani nazarda tutildi) badiiy X.ning obyektiv tomoni bo'lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g'oyaviy baholanishi subyektiv tomonidir. Badiiy xarakterning subyektiv jhati, bir tomondan, uning ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mavjudlik, badiiyat hodisasi bo'lishini; ikkinchi tomondan, uning konseptual funksiyaga xoslanishini ta'min etadi. Boshqacha aytsak, adabiyotning badiiy konseptual funksiyasi



X.orqali amalga oshadi, ya'ni jamiyatning joriy holati X.lar vositasida badiiy tadqiq etiladi va yaxlit badiiy konsepsiya ishlab chiqiladi"[4;352]. Binobarin, matnning eng muhim obrazliligini ta'minlovchi xususiyati – yozuvchi xarakterni haqqoniy va ishonarli, ma'lum bir finksiyani bajarishga kirishgan, jamiyatning muammolariga to'laqonli javob beradigan, inson fenomenini gavalantirish tushuniladi. To'g'ri, ayrim asarlarda xarakter to'laqonli ishlanmaydi, uning maqsadlari ham, iztiroblari ham, muammosi ham oshkor, aniq va asosli ochib berilmaydi. Lirik chekinishlar, yozuvchining beo'rin takrorlari, konsepsiyasidagi qayta ishlanmagan xususiyatlar xarakterni haqqoniy yuzaga chiqishiga rahna soladi. Demak, xarakter ijod psixologiyasining ajralmas bir qismidir. Unda bashariyat oldida turgan abadiy va adabiy muammolar sintezi jamlanadi. Insoniy iroda, qalb dialektikasi, muammolar sistemasi yozuvchining ijodiy kredosini belgilab beradi. Istiqlool davridan keyingi davr adabiyoti manzaralariga e'tibor beradigan bo'lsak, Surxon Bo'riyev o'z davrining muhim jihatlariga jiddiy e'tibor qaratadi. Aristetolning "Poetika" asaridagi xarakterni yuzaga keltiruvchi qator omillarni tahlil qilganimizda yozuvchi izlanishlaridagi masalalar yanada tiniqroq oydinlashadi:

"Ichgan ekan. Yaxshiyam, ichgan ekan. Yo'qsa hozir chindan ham o'lardim, – azbaroyi qo'rqib ketganidan uning lablari ham titradi. – Axir men ham odamman-ku, Xudojon? Nega meni har doim qo'rquv ichida yashashga mahkum etding. Axir, aslida u emasmi menga eng yaxshi so'zlarni aytadigan odam? To'ng'izmishman... cho'chqamishman... moldek yeb yotarmishman... Ko'rgan kunim qursin. Men kun ko'rmadim. Shunga tekkan kunimga ming la'natlar bo'lsin. Ikki akam bilan Shodiya xolam majbur qilishmaganida, balki, hozirgi ahvolim... hayotim... eyy, endi bo'lmaydi-da. Taqdirim qursin. Balki, u...". Zebo burnining to uchigacha kelgan yoshlarini sidirib, eshikka suyangan ko'yi sekin o'tirdi. So'ng ko'zlarini chirt yumdi-da, sal yorishib qolgan shiftga yuzlandi. "Oo! Yo'q, mening peshonam azaldan sho'r edi. Yo'qsa kelib-kelib qayoqdagi irkit qishloqda, yana kimsan, allaqanday Nasim temirchining xonadonida ikki o'g'ildan so'ng qiz bo'lib, dunyoga kelarmidim? Hatto tug'ilishimning o'zi bir baxtsizlik edi. Xudo biladi tug'ilganim uchun shu ziqna otam kuyinganidan qay ahvolga tushgan? "Qizim" deya yolchitib suyganini eslolmayman hatto"[5;23].

Jabbor va Zeboning orasidagi qiz farzand haqidagi tortishuvlari, alamzadalik kayfiyati insoniy qiyofadan chiqishga olib keldi. Ana shu lavhada ham yozuvchi ikki jihatga qattiq urg'u bermoqda. Jabbor – alamzadami? Uning birgina suyangan Pokiza ismli qizi, o'g'li bo'lishini xohlagan orzulari, o'tirishlarda yuziga solgan Salim do'stining istehzolari ham oiladigi muhitning darz yetishiga olib kelmoqda.



Shuni qayd etish joiz, romanning birinchi kitobida – yozuvchi xarakterlarini o'quvchiga o'z xatti-harakatlari bilan tanishtirishga yetaklaydi. Ana shu jarayon, tezlashadi. Voqelik kuchli psixologik, ijtimoiy munosabatlar tig'izlashuvini namoyon etadi. Ayni damda, muhabbat – nafratga, nafarat esa alamzadalikka olib keladi. Surxon Bo'riyev o'z qahramonlari tabiatidagi o'sish-o'zgarishlarni – muammo ko'lamini nuqtayi nazaridan baholashni o'quvchining o'zigagina havola etadi. Dunyoning o'zgarib borayotganligini, odamlar ruhiyatidagi azim evrilishlarning zamonaviy – postmodern dunyoga aylanishini ham talqin etadi. Demak, yozuvchi inson irodasini sinovdan o'tkazarkan, "Quyoshga intilganlar" – sobiq ittifoq davrida odamlar faravon hayot kechirishi bilan kunim o'tsa bo'ldi qabilida ish tutishi, yoki tezak terib, qishning g'amini ko'rishi, olis-yaqin voqeliklar fonida xotirlaydi:

"Eyy ahmoq er! Miyasi chirik er! Indamasam meni buzuqqa chiqarib taloq-pattamni bermoqchi bo'ldi, iflos...". Shodiya yuziga yopishtirilgan bintlarning ustidan avaylabgina bosib-bosib qo'ydi, "Endi shuyam gap bo'lsa, tovba. Bir kamim shu yoshimda erim bilan ajrashib, otamning uyiga ko'chishim qoluvdi. Yo'q, pichoq borib suyakka yetdi. Sira qo'l qovushtirib o'tirolmasdim, axir. O'zimga o't qo'ygan bo'lsam, nima... uni sevib, ajralib qolayotganim uchun qo'ydimmi? Yo'q, o'zimning pok ekanimni isbotlab, qaytanga ko'zini moshday ochib qo'ydim. "Meni qo'yadigan bo'lsang, o'zimni yoqaman, qachonki, o'ligimni ko'masan, o'shandagina mendan qutulasan..." dedim men unga. Shu joyda Shodiya iddao bilan ko'zlarini ola-kula qilib, yosh chiqmasa ham yig'lagan bo'ldi[6;61].

Shodiyaning ko'nglidan kechgan voqealar Zeboni chuqur qayg'uga soladi. O'z jigarbandining nohaq tuhmatlarga qolishi, butun qishloq oldida bosh ko'tarib yurishi nihoyatda achinish hissini kuchaytiradi. Surxon Bo'riyev – asar qahramoni Jabborning ruhiy kechinmalarini ifodalarkan, yo'qchilik borasida boshidan o'tkazgan iztiroblarini tahlilga tortadi. Ayniqsa, tuhmatga qolib o'zini yoqib yuborgan Shodiya esa ayoli Zeboning yolg'iz yodgori. Onasi erta o'tib, Nasim usta tarbiyasini olgan opa singillar taqdiri hech kimni befarq qoldirmaydi. Tarix o'qituvchisi kollejdagi ozgina maoshiga oila tebratib, keyingi hayotiy sargo'zashtlarini umr daftariga bitib boradi.

Umuman, romandagi lirik chekinishlar, kiritma voqealar o'quvchi tuyg'ularini teranlashtiradi. Psixologik konflikt har bir fasl oraliq'ida xarakterni mukammal ko'rinishga olib keladi. Ayni damda, Zebo va Jabbor taqdiri psixoanalitik modus konsepsiyasini tartiblashtiradi. "personajlar sistemasi orqali yozuvchining inson va uning tabiat bilan o'zaro bog'liqligi, tarix va jamiyat



munosabati bilan birgalikda, shuningdek, muallif tasavvuridagi insonning turli tiplari va atrofdagilar bilan o'zaro aloqasi, ularning millati, kasb-kori, tabaqasi, temperamenti, mijozi, xarakteri, tabiati, ijtimoiy mavqei, ruhiyati va g'oyaviy qarashi yaxlit tarzda aks etadi"[7;89]. Shuningdek, bu borada, ayniqsa, romandek epik janr kompozitsiyasida voqelikni idrok etishda yozuvchi turli tasvir usullaridan unumli foydalanadi. Aynan shu tamoyil yozuvchining xarakterni o'ziga xos tarzda tasvirlash uslubini ham namoyon etadi. S.Bo'riyev yaratgan mif – yozuvchi tasavvurining, olamining mahsulidir. Yozuvchi har qanday davr, zamon va makonda kechadigan voqelikni o'zi to'qib chiqargan badiiy haqiqatlar bilan hayotiy haqiqatlarga uyg'unlashtiradi.

Adabiyotlar:

- 1.Бўриев С. Танҳолик тантанаси. –Т.: Тафаккур, 2019. –Б.5.
- 2.Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т.:Bookmany-Print, 2022. –Б.88.
- 3.Бўриев С. Танҳолик тантанаси. –Т.: Тафаккур, 2019. –Б.7.
- 4.Қуронов Д., Мамажанов З., Мералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2013. –Б.352.
- 5.Бўриев С. Танҳолик тантанаси. –Т.: Тафаккур, 2019. –Б.23.
- 6.Бўриев С. Танҳолик тантанаси. –Т.: Тафаккур, 2019. –Б.61.
- 7.Тўлаганова С. Бадий асар морфологияси. –Т.: Муҳаррир, 2016. –Б.89.
- 8.Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – 196 б.
- 9.Ёқубов И. Бадий эстетик – сўз сеҳри. –Тошкент ТДПУ., 2011. –560 б.